Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Tekstari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekturodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekturodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



INGLIZ TILI DARSLARIDA KREATIVLIKNI OSHIRISHDA KUZATILADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHGA DOIR PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Yusupov Lutfullo Sayitturayevich

Andijon davlat pedagogika institute mustaqil izlanuvchisi
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
institut akademik litsey direktori

ORCID: 0000-0001-9221-9234

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha samarali pedagogik yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, amaliy tajriba natijalari va ta'lim amaliyotidagi kuzatishlarga tayaniladi. Kreativlikni cheklovchi omillar sifatida o'qituvchining an'anaviy dars yuritish uslubi, ochiq fikrlash vazifalarining yetishmasligi, xatodan qo'rqish va baholash tizimining moslashuvsizligi kabi pedagogik va psixologik faktorlar ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha faoliyati, erkin fikrlashni rag'batlantirish, o'yin texnologiyalari va reflektiv topshiriqlardan foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Natijalar ingliz tili darslarida kreativlikni oshirish uchun o'quvchini faol sub'ekt sifatida ko'rish, darslarni integrativ va innovatsion metodlar asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar asoslanishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, innovatsion metodlar.

Abstract: This article is devoted to identifying factors hindering the development of students' creative skills in the process of teaching English and analyzing effective pedagogical approaches to their elimination. The research is based on the analysis of existing scientific literature, the results of practical experience, and observations in educational practice. Pedagogical and psychological factors such as the teacher's traditional teaching style, the lack of open thinking tasks, fear of mistakes, and the inadequacy of the assessment system are indicated as factors limiting creativity. The article also highlights the advantages of creating problem situations that contribute to the development of creativity, project activities, stimulating free thinking, and using game technologies and reflexive tasks. The results show that to increase creativity in English lessons, the student is viewed as an active subject, and lessons are conducted using integrative and innovative methods.

Key words: creativity, creative thinking, innovative methods.

Аннотация: Данная статья посвящена выявлению факторов, препятствующих развитию креативных навыков учащихся в процессе обучения английскому языку, а также анализу эффективных педагогических подходов к их устранению. Исследование основано на анализе существующей научной литературы, результатах практического опыта и наблюдениях в образовательной практике. В качестве факторов, ограничивающих креативность, указываются такие педагогические и психологические факторы, как традиционный стиль преподавания учителя, отсутствие задач открытого мышления, страх ошибок и негибкость системы оценивания. Также в статье освещаются преимущества создания проблемных ситуаций, способствующих развитию креативности, проектной деятельности, стимулирования свободного мышления, использования игровых технологий и рефлексивных заданий. Результаты показывают, что для повышения креативности на уроках английского языка необходимо рассматривать учащегося как активного субъекта, использовать интегративные и инновационные методы обучения.

Ключевые слова: креативность, креативное мышления, инновационные методы.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida kreativlik o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, muammolarni noan'anaviy yondashuv bilan hal etish qobiliyati va bilimlarni yangi vaziyatda qo'llay bilish sifatida talqin qilinadi. Kreativlikni o'rganish bo'yicha eng yirik tadqiqotlardan biri Torrance tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u kreativ fikrlashni oqimlilik, moslashuvchanlik, originallik va tafsilotchilik komponentlari orqali baholash tizimini ishlab chiqqan ^[1].



Guilfordning intellekt tuzilmasi nazariyasi kreativ fikrlashni divergent fikrlash jarayoni sifatida belgilaydi va kreativlikni rivojlantirish uchun ochiq savollar va erkin fikrlash muhimi ekanini ta'kidlaydi^[2]. Sternberg kreativlikni shaxsning analitik, amaliy va sintetik tafakkurlari uyg'unligi sifatida ko'rib, o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim muhitidagi tanlov erkinligi va motivatsiya bilan chambarchas bog'liq ekanini isbotlagan^[3].

Rus olimlari ham kreativlikni pedagogik jarayonda faol tadqiq etgan. Bogoyavlenskaya kreativlikni intellektual faoliyatning eng yuqori bosqichi sifatida ko'rib, o'quvchilarning faolligi va o'quv vaziyatlarini kashf etishi kreativ rivojlanishning asosi ekanini ta'kidlaydi^[4]. Matyushkin kreativlikning boshlang'ich nuqtasi muammoli vaziyatni kashf etish ekanini aytib, o'qituvchi o'quvchini mustaqil savol qo'yishga yo'naltirishi lozimligini ko'rsatadi^[5]. Xutorskoy kreativ ta'lim muhiti uchun o'yin elementlari, loyiha faoliyati va reflektiv topshiriqlar samaradorligini ta'kidlaydi^[6].

O'zbek tadqiqotchilari orasida Qosimova o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda muammoli ta'lim, mustaqil izlanish topshiriqlari va tanqidiy fikrlash metodlari samaradorligini ko'rsatgan^[7]. Shodiev kreativlikni rivojlantirishda o'yin texnologiyalari va loyiha-metoddan foydalanishni taklif etadi^[8]. Tursunov esa kreativlikni baholashning psixologik mezonlari bilan bir qatorda pedagogik diagnostika vositalari ishlab chiqishni taklif qiladi^[9].

Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kreativlik tug'ma qobiliyat emas, balki o'qitish jarayonida shakllanadigan rivojlanuvchi kompetensiyadir. Umumiy xulosaga ko'ra, o'quvchilar kreativligini rivojlantirish uchun erkin fikrlash, muammoli vaziyatlar, loyiha-metod, refleksiya va ochiq turdagi topshiriqlar eng samarali vositalardir. Sho'rolar davri psixologiyada kreativlikni ko'proq intellekt bilan bog'lagan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar kreativlikni kompetensiya, kommunikativlik va ijtimoiy muhit bilan bog'liq hodisa sifatida ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik ta'lim tizimining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, zamonaviy ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangi g'oyalar yaratishi va muammolarni original yechimlar bilan hal qilishi talab etiladi. Bu borada xorijiy, rus va o'zbek olimlarining tadqiqotlari kreativlik nazariyasi va uning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi masalasida turli yondashuvlarni taklif etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida E. Torrance kreativlikni o'lchash va baholash borasida muhim hissa qo'shgan. Uning Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) tizimi divergent fikrlash, oqimlilik, moslashuvchanlik va original fikrlarning o'lchov mezonlarini ishlab chiqdi. Torrance fikricha, kreativlik maxsus topshiriqlar, ochiq savollar va noan'anaviy fikrlash vazifalari orqali rivojlanadi. J. Guilfordning "Intellekt tuzilmasi nazariyasi" kreativlikni inson ongining mustaqil komponenti sifatida talqin etib, intellektual operatsiyalar tizimida divergent fikrlashni alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Sternbergning triarik intellekt nazariyasi esa kreativlikni analitik, amaliy va sintez tafakkurining uyg'unligi sifatida talqin qiladi. Bu tadqiqotlar kreativlikni o'quvchi shaxsini kompleks rivojlantirish bilan bog'laydi^[10].

Rus olimlari ham kreativlikni pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uni rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Xutorskoy kreativ ta'lim muhitini yaratish uchun o'quvchilarga muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari va reflektiv topshiriqlar berish zarurligini ta'kidlaydi. Bogoyavlenskaya kreativlikni "intellektual faoliyatning eng yuqori darajasi" sifatida tasniflab, o'quvchilarni yangi bilimlarni mustaqil izlashga yo'naltiruvchi sharoitlar muhimligini asoslaydi. Matyushkin esa kreativlik muammoli vaziyatni kashf qilish jarayonida vujudga kelishini ko'rsatadi, bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchini ijodiy savol qo'yishga undashdan iborat.

O'zbek olimlari orasida G. Qosimova, Sh. Shodiev va N. Tursunov ijodiy ta'limni nazariy va amaliy jihatdan o'rganib, kreativ kompetensiyani rivojlantirishni ta'lim texnologiyalari, muammoli ta'lim va integrativ metodlar asosida tashkil etishni taklif etadi. Ularning tadqiqotlarida kreativlikni rivojlantirishning asosiy vositalari – mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, erkin tanlovli topshiriqlar, ijodiy muammolar, loyiha ishlari va refleksiya jarayonlari ekanligi ko'rsatilgan. Bu yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim sharoitida kreativlikni rivojlantirish uchun keng qo'llanilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili darslarida kreativlikni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, kommunikativ salohiyatini va muammoli vaziyatlarda original yechim topish qobiliyatini shakllantirish uchun muhimdir. Biroq O'zbekiston maktablarida kreativ kompetensiyaning rivojlanishi bir qator tizimli va metodik muammolar bilan cheklangan.

Birinchi muammo – ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish usullarining ustunligidir. Ko'plab maktablarda darslar grammatika–tarjima, chaqirib javob berish va o'qituvchi markazida tashkil etilgan reproduktiv metodlar asosida olib boriladi. Guilford (1956) ta'kidlaganidek, bunday yondashuv ijodiy fikrlashni emas, balki "bitta to'g'ri javob topish" modelini kuchaytiradi^[11]. Torrance (1966) ham kreativlikni rivojlantirish uchun ochiq savollar, yechimlarning turli variantlari va muammoli vaziyatlar zarurligini ilmiy asoslaydi^[12].

Ikkinchi muammo – o'quvchilarning xatodan qo'rqishi bilan bog'liq. O'zbekiston ta'lim tizimida uzoq yillar davomida xatosiz yozish va "5 baho olish" asosiy maqsad sifatida shakllantirilgan, bu esa o'quvchilarda xatoni salbiy hodisa sifatida qabul qilish madaniyatini yuzaga keltiradi. Sternberg (2006) fikricha, kreativ fikrlash uchun o'quvchiga psixologik xavfsiz muhit zarur, aks holda yangi g'oya bildirish ehtiyoji pasayadi^[13].

Uchinchi muammo – o'quv materiallari va darsliklarning standartligi. O'quvchilar ko'pincha tayyor gaplar, yopiq testlar va bir xil savol-javoblar asosida darslarga tayyorlanadilar. Khutorskoy (2003) darsni ijodiy tashkil etish uchun loyiha metodi, muammoli vaziyatlar va alternativ topshiriqlarni joriy etishni tavsiya qiladi^[14]. Darslikdagi standart mashqlar o'quvchilarda tanlov qilish, g'oyani o'zgartirish, shaxsiy fikr bildirish imkoniyatini bermaydi.

To'rtinchi muammo – o'qituvchilar metodik ko'nikmalarining yetishmasligi. Qosimova (2020) xarakterlaganidek, o'qituvchilar kreativ pedagogika metodlari, xususan SCAMPER, 6 Thinking Hats, project-based learning kabi yondashuvlardan yetarlicha xabardor emaslar^[15]. Runco (2007) tadqiqotlari kreativlikni rivojlantirish uchun metodik tayyorgarlik va reflektiv dars rejalarini muhimligini ko'rsatadi^[16].

Beshinchi muammo – texnik resurslarning yetishmasligi. Ko'plab maktablarda proyektor, internet, audio materiallar yoki innovatsion texnologiyalar kam qo'llaniladi. Biroq Runco (2007) ta'kidlaganidek, kreativlik faqat texnik vositalar bilan bog'liq emas; eng samarali ijodiy mashqlar minimal vositalar bilan ham bajarilishi mumkin.

Oltinchi muammo – o'quvchilarning passiv o'rganish odatidir. Matyushkin (1991) ijodiy fikrlashning boshlang'ich nuqtasi mustaqil savol qo'yish va muammoli vaziyatni kashf qilish ekanini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik darslar o'qituvchi gapiradi, o'quvchi tinglaydi modeli asosida tashkil etilgan, natijada o'quvchilar fikr bildirishga odatlanmagan^[17].

Yettinchi muammo – baholash tizimining moslashuvsizligi ham kreativlikni rivojlantirishda jiddiy to'siqdir. Baholash odatda test, diktant, grammatik mashqlar asosida olib boriladi va ijodiy ishlarni baholash mezonlari mavjud emas. E. Tunik bu muammoni rubrika, portfolio, self-assessment kabi muqobil baholash usullarini qo'llash orqali hal qilishni taklif qiladi^[18].

Sakkizinchi muammo – dars vaqti yetishmasligi. 45 daqiqa davomida muhokama, guruh ishlari, rol o'ynash kabi kreativ metodlarni to'liq qo'llash murakkab. Bogoyavlenskaya (1983) ijodiy faoliyat vaqt talab qilishini ilmiy asoslaydi; shu bois darsda mini-kreativ topshiriqlar joriy etish samarali bo'ladi.

To'qqizinchi muammo – o'quvchilarning ingliz tilida fikrlay olish qobiliyatining pastligi. Sternberg (2006) bu jarayonda vizual ko'mak, sentence starters, mixed-level groups kabi strategiyalarni taklif qiladi, chunki o'quvchilar yangi g'oyaga ega bo'lsa ham, uni ifodalash qiyin bo'lishi mumkin.

Nihoyat, **o'ninchi muammo** – ota-onalarning konservativ qarashidir. Shodiev (2019) ta'kidlaganidek, ota-onalar "kitobdagi mashq bajarilsa bo'ldi" tamoyiliga amal qiladilar va darsda shovqinli, faol muhitni jiddiy qabul qilmaydilar. Bu o'qituvchida innovatsion yondashuvdan qo'rqish holatini shakllantiradi^[19].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativlik zamonaviy ta'lim paradigmasida markaziy o'rin tutadigan pedagogik kategoriya bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv bilan muammolarni hal qilish, yangi g'oya yaratish va mavjud bilimlarni qayta ishlash qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida kreativlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki chet tili o'quvchilarda o'zgacha fikrlash, tillararo analogiyalar, madaniyatlararo muloqot va ijodiy nutqni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq O'zbekiston maktablarida ingliz tili ta'limi jarayonida kreativ kompetensiyani rivojlantirish hali ham izchil yo'lga qo'yilmagan, bir qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, ta'lim jarayonida an'anaviy dars usullarining ustunligi ko'p hollarda kreativlik rivojlanishini cheklaydi. Dars jarayoni odatda reproduktiv faoliyatga, ya'ni ma'lumotni qayta aytish, tayyor qoidani takrorlash, grammatika mashqlarini bajarishga qurilgan bo'ladi. Bu holat o'quvchini faqat bilim oluvchi ob'ekt sifatida ko'rsatadi, uning faol sub'ekt sifatidagi roli esa cheklab qo'yiladi. Kreativlikni rivojlantirish uchun konstruktivizm va muammoli ta'lim tamoyillariga asoslangan metodlarni tatbiq etish zarur: ochiq savollar berish, muammoli vazifa yaratish, darsni loyiha asosida tashkil etish o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning xatodan qo'rqishi bilan bog'liq bo'lib, bu ijodiy fikrlash mexanizmlarini bloklaydi. O'zbekiston ta'lim amaliyotida "to'g'ri javob" konsepsiyasi juda kuchli, natijada o'quvchilar noto'g'ri fikr bildirishdan cho'chiydi. Kreativlik esa xatolar orqali o'rganishni, tajribalarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shunday ekan, o'qituvchi darsda psixologik xavfsizlikni ta'minlashi, "xato qilish – bu rivojlanishning bir qismi"



tamoyilini joriy etishi lozim. Feedback-first model, ya'ni yozma yoki og'zaki fikr-mulohazani bahodan oldin berish, o'quvchilarni erkin fikrlashga rag'batlantiradi.

Uchinchidan, darslik va o'quv materiallarining standartligi bilan bog'liq. Ko'plab ingliz tili darsliklarida yopiq savollar, aniq javobli topshiriqlar va klishela dialoglar ustun. Bu esa o'quvchini erkin fikr yuritishdan ko'ra javobni topishga majbur qiladi. Darsliklardan foydalanishda kreativ yondashuv zarur: mavjud mashqlarga alternativ savollar qo'shish, hikoya oxirini o'zgartirish, personajlarni almashtirish, loyiha yaratish kabi topshiriqlar o'quvchilarda divergent fikrlashni faoliyatga jalb etadi. Shunday qilib, standart darslik ham kreativ ta'lim muhitini yaratish uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Yana bir muhim muammo – baholash tizimining qattiqligi. Bugungi kunda baholash asosan informat-sion bilimlarni o'lchashga qaratilgan: test, grammatik mashq, nazorat ishlari. Kreativlik esa jarayonni, g'oyani, yechimning original shaklini talab qiladi, shu sababli o'qituvchilar ko'pincha kreativ topshiriqlardan qo'rqadi, chunki baholash uchun mezon noma'lum bo'ladi. Bu muammoni hal qilish uchun rubrikalar, portfoliolar, o'quvchi o'zini baholash (self-assessment) va tengdosh baholash (peer-assessment) tizimlaridan foydalanish taklif etiladi. Bu yondashuvlarda jarayon va mahsulotning sifat mezonlari oldindan belgilanadi va bu kreativlikni rag'batlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, diyorimizning aksariyat maktablarida ingliz tili darslarida kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammolar kuzatiladi:

- tizimli (baholash, darslik, metodika)
- psixologik (xatodan qo'rqish, passivlik)
- pedagogik (an'anaviy usullar, metod yetishmasligi)

O'quvchilarni kreativ tafakkurini rivojlantirish uchun kompleksli ish tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu tizim ta'lim dasturlaridan boshlab o'quvchini dars tayyorlash jarayonigacha bo'lgan jarayonni qoplab olish kerak. Ya'ni fan dasturi ham kreativlikni rivojlantirish ustivor vazifa sifatida belgilanishi, o'qituvchi ham o'z o'rnida kreativsifatlarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Kreativlikni oshirish uchun ochiq savollar, loyiha topshiriqlari, guruhviy ishlar, tanlov asosidagi vazifalar, baholash mezonlarini o'zgartirish eng samarali yondashuvlar hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirishdagi cheklovlar faqat metodik yoki psixologik emas, balki tashkiliy va sotsiokultural omillar bilan ham bog'liq. Maktablarda texnik resurslarning yetishmasligi, darslarni multimedia vositalarsiz tashkil etish, internetdan foydalanish imkonlarining cheklanganligi kreativ ta'lim muhitini jiddiy darajada toraytiradi. Biroq resurs yetishmasligi kreativ metodlarni qo'llashga to'siq emas, chunki ijodiy topshiriqlarning ko'pchiligi minimal vositalar bilan amalga oshirish mumkin: rol o'ynash, fikrlar xaritasi, "agar... bo'lsa" modeli, "story-circle" strategiyasi kabi metodlar minimal sharoitda ham samarali natija beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Torrance, E. P. (1966). Torrance Tests of Creative Thinking. Scholastic Testing Service.
2. Guilford, J. P. (1956). The structure of intellect theory. Psychological Bulletin
3. Sternberg, R. J. (2006). The Nature of Creativity. Cambridge University Press
4. Богоявленская, Д. Б. (1983). Интеллект и творчество. Москва: Педагогика
5. Матюшкин, А. М. (1991). Психология творческого мышления. Москва: МГУ.
6. Хуторской, А. Н. (2003). Ключевые компетенции и образовательные стандарты. Эйдос.
7. Qosimova, G. (2020). Ta'limda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari. Toshkent: Fan.
8. Shodiev, Sh. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Samarqand: Ziyo
9. Tursunov, N. (2021). Kreativlikni baholash va pedagogik diagnostika masalalari. Toshkent: Innovatsiya.
10. Runco, M. A. (2007). Creativity: Theories and themes. Academic Press.
11. Матюшкин, А. М. (1991). Психология творческого мышления. Москва: МГУ.
12. Туник, Э. Э. (2002). Диагностика творческого мышления. СПб.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.